



SAYFIDDINOVA MASHHURA ZOHID QIZI

2006-yil 21-sentabrda, Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanida tug'ilgan. Maktabni a'lo baholarga tamomlagan. Viloyat bosqichida bo'lib o'tgan olimpiadalarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Hozirda SHarof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining filologiya va tillarni o'qitish fakultetida 1-kurs talabasi.

Eng baxtli kun

O'tar kunlar, hafta; oy yillar
O'tar umr-u, vaqt o'tar hamon.
Biz yosh edik, quvnoq va sirli
G'am bo'lmasdi, o'sha bir zamon.
Nahot ulg'aydimi o'sha murg'ak qalb,
Nahot o'sha ko'zlar, o'sha nigohlar.
Bilaman, nimadir o'zgargani rost,
O'sha payt yuq edi, bu oh- u vohlar.

O'sha quvnoq ko'zlar bugun ko'p mayus,
O'sha begubor qalb, bugun parishon.
"Bolalik yaxshiydi,"- deya yig'lar ko'z,
Hech bir joydan topmas qalb endi makon.

Samolarda parvoz etarman, misli
Qanoti singan bir xasta qush kabi.
Aslida qanotmas, yuragim xasta,
Kim yoki nimadir, bilmam sababi.



Yuragim yonadi, ichim kuyadi,
Hech bir dardlarimga topilmas chora.
Menga bir rahm qilmas, qilmaydi aslo
Bariga chidayman, endi nachora.

Yuragim ikkiga bo'lingan mening,
Biri G'arbni deydi, birisi Sharqni.
Menga ikkisi ham birdayin muhim,
Bir-biridan aslo topmadim farqni.

Sabr qilayapman, kuchim yetguncha,
Balki, barisining go'zal yakuni.
Aslida shudir baxt, shudir bor hayot,
Shudir Alloh bergan eng baxtli kuni...

Tun

Umrning har oni g'am, tashvish, azob,
"Yakuni bormi"- deb o'ylab qolaman
Ulg'ayish shunchalik qiyin deysizmi
Yo'q, men ulg'aymadim, hali bolaman.

Hayot haqiqatin anglolmayapman,
Bolalikka qaytish yana xohlayman.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Qoqilib yiqilsam, jarohatimni
Sizga yig'lab-yig'lab aytish xohlayman.

Mayli edi bo'lsa minglab yaralar,
Tanamda, qo'limda hatto yuzimda.
Ammo bunday emas, bari boshqacha,
Asl dard, asl g'am mening qalbimda.

Meni telba demang telba emasman,
O'ylayman, yig'layman, tinchlanolmayman.

So'ngisi bordir deb sabr qilyapman,
Nega hayot bunday hech bilolmayman.

Bu sinov, bu to'siq, bu o'tar dersiz,
Ha to'gri, shunday ham buladi bir kun.
Lekin nega kerak shuncha dard-alam,
Nega kerak azobli, qorong'u bu "tun"?

Onajonimga!

Ilk bor ko'zlarimni ochgan paytimda,
Ilk bor so'zlaganim, yurgan paytimda,
Baxtdan kulib, g'amga botgan paytimda,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Onajonim, yonimda men sizni koʻrdim!

Mehringiz mendan hech ayamadingiz,
Bolam kiysin, bolam yesin dedingiz.
Yiqilsam, yigʻlama deb ovutdingiz,
Onajonim, boringizga ming shukur!

Ichim dardga toʻlsa, darrov sezasiz
Bari oʻtar, xafa bulma deya olasiz.
Ayting ona, menga chin haqiqatni,
Buncha sabr-u kuchni qaydan olasiz?

Opam, ukalarim ,mening dardimni,
Jimgina tinglaysiz, yoʻl koʻrsatasiz.
Men hatto oʻzimni eplolmayapman,
Siz-chi, barchamizga dardkash boʻlasiz.

Onajon, ming bora rahmatim sizga,
Meni "men" qildingiz, mehnatiz ila.
Qaniydi, Allohim bir imkon bersa,
Umringiz abadiy boʻlsa, baxt birla!!!